

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

«KIMYO TEXNOLOGIYA » KAFEDRASI

JALOLOV ISROILXON

**Namangan shahar sharoitida reklama mahsulotlarini tayyorlash
texnologiyasida ishlaydigan bosmaxona loyihasini tuzish**

mavzusidagi diplom loyiha ishi

Ilmiy rahbar:

A.K.Bulanov

«_____» _____ 2015 y.

Kirish

Reklama mahsulotlarini ishlab chiqarish matbaachilik sohasining tez rivojlanayotgan va yuqori daromadli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohada yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida bu sohada amalga oshirilgan ishlar bo'yicha to'liq ma'lumot berilgan.

2014 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalarini maqsadga yo'naltirilgan holda va tizimli amalga oshirish natijasida o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini, makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash ta'minlandi.

2014 yilda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi ekvivalentda 13,0 milliard dollarni tashkil etib, 2013 yildagiga nisbatan 11,3 foizga o'sdi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 3,0 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'ldi, uning 72 foizidan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Investitsiya dasturi doirasida ishlab chiqarish yo'nalishida umumiy qiymati qariyb 2,7 milliard AQSH dollarini tashkil etgan 150 ta loyihani amalga oshirish tugallandi.

Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 6,8 foizga, pudrat qurilish ishlari hajmi 16,6 foizga, xizmatlar ko'rsatish hajmi 13,5 foizga, chakana tovar aylanmasi hajmi 14,8 foizga o'sdi. Yalpi ichki mahsulotning tarkibida xizmatlar ko'rsatish ulushi 53 foizgacha o'sdi.

Davlat byudjeti profitsit bilan ijro etildi. Inflyatsiya darajasi prognozdagidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

Jahon bozori kon'yunkturasining beqarorligiga qaramay, eksport hajmining 10,9 foizga o'sishi ta'minlandi va tashqi savdo aylanmasining 1,3 milliard AQSH dollari miqdoridagi ijobiy saldosiga erishildi. Jami eksport hajmining 72 foizidan ortig'i xom ashyo bo'lmagan tovarlarga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqarish chiqimlarini ratsionallashtirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini o'rtacha 11,2 foizga, yalpi ichki mahsulotning energiya sarfi ko'rsatkichini esa 15,3 foizga pasaytirish ta'minlandi.

Respublikaning bank tizimi barqaror faoliyat ko'rsatmoqda, uning kapital etariligi darajasi minimal xalqaro standartlardan 3 baravar ortiq miqdorda saqlanib qolmoqda, likvidligi esa eng yuqori talablardan 2,2 baravar ko'pdir. O'tgan yili tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga ko'paydi, kredit portfeli jami summasining 80 foizga yaqini ichki manbalar hissasiga to'g'ri keladi.

Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish borasida tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kichik biznes sohasini yanada rivojlantirishga ko'maklashdi. Kichik tadbirkorlik sohasida 26 mingtadan ortiq yangi sub'ekt tashkil etildi, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 55,8 foizgacha o'sdi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda raqamli va purkashli bosma usulida reklama mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan bosmaxonalarni tashkil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda O'zbekistonda matbaa maxsulotlari adadlarining keskin kamayishi oqibatida katta korxonalarining rentabelligi kamaymoqda. Bosma mahsulotlari bozorining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirda kam adadli, yuqori sifatli, ko'p rangli, qisqa muddatlarda bajariladigan xamda imkon qadar har bir nusxalarga individual axborot kiritiladigan nashrlarga talab ortib bormoqda. Ana shunday paytda raqamli bosish uskunalari qo'llash kulayligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda raqamli bosish mashinalarini shartli ravishda 2 turga bulish mumkin: bosma qolipi ishlatiladigan va bosma qolipi ishlatilmaydigan. Bosma qolipi ishlatiladigan rakamli bosish mashinalariga Heidelberg firmasining Quickmaster DI 46-4, Speedmaster 74 DI, Adast firmasining Adast DI uskunalar mansub bo'lsa, bosma qolipsisiz nusxa olinadigan mashinalarga HP Indigo firmasining HP E-Print 1000+, Ultra Stream, Omnius Multi Stream kabi turli

modifikatsiyadagi mashinalari, Xeikon firmasining DCP 320D, CSP 320D kabi modellari, Heidelberg firmasining Nex Press 2100 va Xerox, MAN Roland, Toshiba firmalarining ko'plab uskunalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

«Raqamli bosish» iborasi insonlar uni ishlatishiga qarab turli ma'nolarni anglatishi mumkin: masalan, printerda nusxa olish xam raqamli bosishga kiradi.

Raqamli bosish bu shunday jarayonki, bunda (axborotlarni bosishgacha tayyorlash jarayonida olingan fayllardan iborat bo'lgan) raqamli axborotlar inson tomonidan biror-bir analogli ishlar bajarilmay turib qog'ozga o'tadi. Raqamli bosishning asosiy xususiyati shuki, unda bosma qolipi tayyorlash jarayoni mavjud bo'lmaydi (juda bo'lmaganda bu jarayon ko'zga ko'rinmaydi). Ba'zi xollarda bu jarayon avtomatik ravishda bosish mashinasining o'zida bajarilsa, elektrografik usulida esa tasvir har bir nusxa uchun qaytadan shakllanadi va qolip ishlatilmaydi.

Raqamli bosish mashinalari taxminan 15-20 yil oldin yaratila boshlagan. «Raqamli bosish» termini ikki sinf mashinalariga birdek qo'llaniladi. Birinchi tipda qlip bevosita bosish mashinasida eksponirlanadi va nusxa olinadi, ikkinchi tip «haqiqiy» raqamli bosish mashinalari bulib, ular elektrografiya va boshqa printsiplarga asoslanadi hamda qolip ishlatilmay uzgaruvchan axborotlarni nusxalash imkonini beradi.

Bunday mashinalarni ajratish uchun hozirda Computer-to-Press yoki Direct Imaging (birinchi tip mashinalari uchun) va Computer-to-Print (ikkinchi tip mashinalari uchun) atamaları ishlatilmoqda.

C-t-Press atamasini «raqamli bosish» atamasi bilan bir xil qabul qilish bir oz noo'rin. C-t-Print uchun adadlarning 1-200 nusxa bo'lishi, ko'p saxifalilik, har bir nusxaga individual axborot kiritish (personallashtirish) xarakterli bo'lsa, DI uchun adadi 200 va undan ortiq bo'lgan nusxalarning yuqori sifatda bo'lishi xos. Quruq ofset bo'yoqlari ham kukunsimon yoki suyuq tonerlardan yuqoriroq sifat beradi.

Qoliplarni bevosita mashinada tayyorlash imkoniyati tufayli ishlab chiqarishning quyidagi bosqichlari mavjud bo'lmaydi: fotoashyoga chiqarish va uni ochiltirish, montaj, bosma plastinalariga tasvir o'tkazish va ochiltirish.

TEXNOLOGIK QISM

Raqamli bosma texnologiyasi

So'ngi yillarda «raqamli» (digital) atamasi kongress, konferentsiya, ko'rgazma, matbaa va axborot nashrlarining sahifalarida tez –tez uchramoqda. Ularning orasida asosiy o'rinni «raqamli bosma» egallamoqda, u so'ngi o'n yillikda printerlar, plotterlar va raqamli bosma uskunalari ko'rinishida keng tarqalmoqda. Raqamli bosmaga bo'lgan qiziqishning ortib borishini ko'plab matbaa korxonalarining raqamli bosma uskunalari harid qilinayotganligidan ham bilish mumkin.

«Raqamli bosma» nima va u matbaachilar uchun nimasi bilan qiziq?

Deyarli barcha ishlab chiqarish jarayonlari –nashrlarni bosishga tayyorlashdan boshlab, to broshyuralash –muqovalash ishlarigacha bo'lgan barcha jarayonlar va tayyor mahsulotlarni ekspeditsiyalash komp'yuter texnologiyalari va axborotni raqamlashtirish bilan bog'liq.

«Raqamlashtirish» atamasi axborotni elektron kodlash shaklida qayta ishlash va istalgan asl nusxalarni alohida piksellarga ajratish tushuniladi.

Raqamli bosma - bu matn va tasvirlarni raqamli qayta ishlashga asoslanadigan, hech qanday oraliq bosqichlarsiz (doimiy bosma qolipni tayyorlamasdan) amalga oshiriladigan va har bir bosma nusxasiga individual ishlov berish imkoniyatiga ega bo'lgan texnologiyadir.

Bosma qolipi mavjud bo'lgan, lekin u raqamli texnikadan foydalanib tayyorlanadigan boshqa bosma usullari shartli ravishda raqamli bosmaga kiritilishi mumkin.

Raqamli bosma raqamli texnologiyalar orasida o'z o'rniga ega. Komp'yuter texnikasi va ma'lumotlarini qayta ishlash texnikasi, personallashtirilgan matbaa bosmasining turli texnologiyalarga taalluqli bo'lib, ularda tasvir bosma qolipiga bevosita raqamli axborotlar massividan chiqariladi. An'anaviy bosma usullari uchun odatiy hisoblangan bosma qolip bu yerda virtual tavsifga ega bo'lib, u moddiy ko'rinishda mavjud bo'lmaydi, tasvir esa bevosita qolip silindrida shakllanadi. Bu usullar komp'yuterdan bosishga (Computer-to-Print) deb

nomlanadi hamda magnitografiya va elektrofotografiya bosma usullari kontaktli jarayoniga asoslanadi.

Bosish kontaktsiz jarayon va vositasida NIP (Non–Impact–Printing) purkashli bosma usuli vositasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, raqamli bosma (digital print) bosmaning turli texnologiyalarini o'zida jamlab, ularda tasvir bosma qolipiga yoki bevosita bosishga elektron axborotlar massividan uzatiladi.

Raqamli bosma ofis texnikasi sifatida (printerlar), katta o'lchamli bosma (plotterlar), rangli yuqori sifatli bosma (raqamli bosma uskunalari) sifatida keng qo'llaniladi.

Tonerlardan foydalaniladigan magnitografiya va elektrofotografiya texnikalariga asoslanadigan usullar bilan bir qatorda qisman elektrofotografiya, qisman esa ofsetga o'xshash maxsus bosma bo'yoqlaridan foydalanuvchi usullar ham raqamli bosmaga taalluqli.

Bosma qolipi komp'yuterdan bosma qolipga (Computer–to–Plate) raqamli texnologiyasi bo'yicha bosma uskunasiidagi qolip materialida yoki qolip silindrining yuzasida tayyorlanadi hamda adadni bosishning oxiriga qadar o'zgarmas bo'lib qoladi.

Bosma uskunasida qolip materialida bosma qolipini tayyorlash texnologiyasi ikkita teng ma'noli atamaga ega:

* DI texnologiyasi (direct Imaging, digital printing)

* Computer –to –Press

Bosma uskunasining qolip silindrida bosma qolipini tayyorlash texnologiyasi Computer–to–Cylinder nomini olgan. Bu texnologiyalar turli bosma usullari – an'anaviy namlashli ofset va namlashsiz ofset, chuqur bosma va fleksografiya, shuningdek, trafaret bosma-rizografiya uchun ham qo'llaniladi.

Boshqa variantlar ham mavjud, masalan komp'yuterdagi tasvirni tamponli bosmaning qolip materialiga ham chiqarish mumkin.

Raqamli bosmaning rivojlanishi bir tomondan komp'yuter texnikasining rivojlanishi, ikkinchi tomondan bosma usullarining rivojlanishi bilan tushuntiriladi.

Eng afzallik jihatlaridan biri shuki, bu usulda nafaqat oq-qora nusxa, balki rangli nusxa ham olish mumkin. Agar uning kichik adadlarini bosishdagi qulayligini va har bir bosma nusxasini individuallashtirish imkonini e'tiborga olsak, uning joriy qilinishining maqsadga muvofiqligi yaqqol namayon bo'ladi.

Oqimli raqamli bosma. Raqamli bosmaning oqimli tizimlari yuqori unumdorlikka ega bo'lishlari mumkin: A4 formatda minutiga bir necha ming nusxa. Bu esa eng tez ishlaydigan raqamli bosish mashinasidan ham tezroq deganidir. Bunday texnikalarga misol kilib Scitex Digital firmasining Versa Mark rulonli nusxalash tizimini kursatish mumkin. Bu tizimda bir minutda A4 formatidagi 545 ta nusxa olish mumkin, bunda saxifadagi axborot 100% ga o'zgarishi mumkin.

Nusxalar tannarxi nisbatan arzon va eng asosiysi, metall, shisha kabi turli materiallarga nusxa tushirish mumkin. Biroq oddiy qog'ozdagi nusxalarni matbaa sifatida deb bo'lmaydi. 600 dpi beradigan nusxalash boshchalari va maxsus qatlamli qog'oz ishlatilganda yaxshi natijaga erishish mumkin.

Oq-qora raqamli bosma. Bunday nusxalovchi uskunalar lazerli printerlarning kattalashishi va takomillashuvi natijasida kelib chiqqan. Bank hujjatlarini, talab bo'yicha kitoblarni va personal axborotli blankalarni nusxalash bu mashinalarning asosiy ishidir. Bunday mashinalarga misol qilib Heidelberg firmasining Digimaster 9110 rusumli mashinasini ko'rsatish mumkin.

Elkografiya. Bu texnologiya pigment va polimer zarralariga ega suvli asosdagi maxsus buyoklarni elektrokoagulyatsiyalash printsipiga asoslangan. Eksponirlash elektrod matritsalarida yordamida amalga oshiriladi. Elektrodlardan xosil bulayotgan elektr maydoni ta'sirida yuqori yopishkoklikka ega bo'yoq zonalari hosil bo'ladi va yakunda ular bosiluvchi element rolini bajaradi. Tasvirning qog'ozga utishidan oldin oraliq elementlaridagi bo'yoq elastik rakel yordamida olib tashlanadi.

Bunday texnikalarga ELCO 400 misol bo'la oladi. Bu mashinaning nusxalash tezligi 120 m/min. Nusxalash eni 45,5 sm bo'lganda sakkiz sektsiyali

mashina bir minutda 1595 ta ikki tomonlama rangli nusxalangan A4 formatdagi nusxalarni berishi mumkin.

Raqamli bosish mashinalarida ishlatiladigan qog'ozlar optimal namlikka, antistatik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Qog'ozlar ishlab chiqariladigan matbaa mahsuloti turi, kullanadigan texnologik tizim xarakteristikasiga qarab tanlanadi.

Qog'ozlarning vazni 80 g/m^2 dan 350 g/m^2 gacha bo'lishi mumkin.

DI texnologiyasida quruq ofset buyuklari ishlatilsa, Xeikon texnologiyalari quruq kukunsimon tonerlarga asoslangan. Indigo mashinalari esa suyuq bo'yoqlarda ishlaydi.

Raqamli nusxalashda broshyuralash-muqovalash va pardozlash ishlarining ikki varianti qo'llanilishi mumkin: in-line va off-line. Birinchi usulda kesuvchi, perforatsiyallovchi, buklovchi broshyuralash-muqovalash uskunalari ancha yuqori tezlikka ega bo'lishi va raqamli bosish mashinalari bilan sinxron ishlashi kerak.

Ikkinchi usulda kichik formatli an'anaviy broshyuralash-muqovalash uskunalari bosish mashinasidan avtonom ravishda ishlashi mumkin.

Raqamli bosish mashinalariga ega bosmaxonalarning eng takomillashgan EHM lar bilan qurollanishi talab etiladi. Chunki juda katta hajmdagi axborotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlab, o'zgartirib turish uchun kerak bo'ladigan kompyuter texnikasi imkoniyatlari yuqori bulishi kerak.

Bugungi kunda raqamli bosma radio televidenie, internet kabi an'anaviy reklama vositalariga nisbatan jiddiy raqobatchiga aylanib bormoqda.

O'zbekistondagi raqamli bosma bozoriga nazar tashlaydigan bo'lsak, lazerli yoki boshqa texnologiyaga asoslangan printer, nusxa ko'chirish uskunalari va turli plotterlardan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari Xerox Docu Color 2000 Series va boshqa modeldagi raqamli bosish mashinasidan ham foydalanilmoqda.

Raqamli bosish mashinalarini joriy etishda esa masalaning faqat texnik va iqtisodiy tomonini tahlil qilishning o'zi yetarli emas. Bu yerda masalaning tashkiliy tomoni ham mavjud. Ya'ni marketing isloxotlarini o'tkazish kerak, raqamli bosma bozori, uning hajmi, talab va taklif nisbati kabilarni o'rganish lozim.


Reklama mahsulotlaridan namunalar




**Varaqa, broshyura
va bukletlar**



Bukletlar



Kataloglar



Vizitkalar



Konvertlar



Blankalar



Flayerlar



Papkalar



Otkritkalar



Stol kalendarlari



Yirtma kalendarlar



**Cho'ntak
kalendarlari**

Raqamli bosmaning afzalliklari

Tezkorlik. Raqamli bosma yuqori sifatli rangli bosma mahsulot ishlab chiqarishning eng tezkor usuli hisoblanadi. Raqamli bosmaning matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarishning boshqa turlaridan afzalligi – buyurtmani joylashtirish va tayyor mahsulot olish oralig'ida juda kam vaqt o'tishidir. Raqamli bosma bevosita ishlab chiqarish oldidan maketning asl nusxasini tuzatish va

kelishtirishga imkon beradi. Tayyor mahsulot tayyorlashning qisqa muddatlari esa, adadni bosmaga tayyorlash uchun kam vaqt talab etadi.

Personallashtirish. Raqamli bosmaning noyob imkoniyati – bosma mahsulotni personallashtirishdir. Masalan, turli ism-shariflar yozilgan 100 ta taklifnomani bosish kerak, deylik. Ofset bosmada avval taklifnomalar blanklari bosiladi, so'ng esa qo'lda yoki printerda taklif etilganlarning ism-shariflari yoziladi bosiladi, ya'ni tayyor mahsulotni ikki bosqichda olamiz. Raqamli bosmada taklifnoma blanki va ism-sharifni birvarakayiga bir progonda bosamiz!

Vaqtning tejalayotgani ko'rinib turibdi, asosiysi esa – qo'l mehnatiga hojat yo'q! Hammasi avtomatlashtirilgan.

O'zgaruvchi ma'lumotlarni bosish. Raqamli bosma mashinasi nafaqat ism-sharif, manzilni, balki raqam, sana, xullas, istalgan o'zgaruvchi ma'lumotlarni bosish imkoniyatiga ega. Bu raqamli bosmaning boshqa turdagi bosmalardan muhim tafovutidir.

Sifat. Bu eng muhim ustunlik hisoblanadi! Raqamli bosma, ofset bosmaga xos bo'lgan salbiy omillarga (masalan, bo'yoqlarning ustma-ust tushmasligi, qachonki bo'yoq bir-birining ostida yuzaga chiqib qoladi, yoki, turli ranglilik, qachonki nusxalarning rangi bir-biridan farq qiladi, yoki, bo'yoqning bir nusxadan boshqasiga chaplanib o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Asosiysi, raqamli bosmada inson (bosmaxona mutaxassisi) ning bosma jarayonida ishtiroki bartaraf etilgan, bu esa ofset va boshqa bosma turlarida bo'lganidek, inson omili yakuniy natijaga ta'sir etishiga yo'l qo'ymaydi.

Raqamli bosma texnologiyasi bo'yicha tayyorlangan mahsulot doim quyilgan fon tasvirlari (plashkalar)ning yuqori sifati bilan ajralib turadi, adaddagi barcha mahsulotning ranglari bir xil va bir-biridan farqlanmaydi. Tabiiy ob'ektlar yoki san'at asarlarining professional fotosuratlarini o'z ichiga olgan fayllarni bosish chog'ida raqamli bosmaning sifati ayniqsa ko'zga tashlanadi.

Bahosi. Raqamli bosmaning yana bir afzalligi – kichik adadlar bosmasining ofset bosmaga nisbatan arzon narxidir. Kichik adadlardagi mahsulotni bosish kerak bo'lganda, faqat raqamli bosma texnologiyasi Sizga eng yaxshi bahoni taklif eta

oladi. Raqamli bosma uchun bosmaoldi tayyorgarlik, bosma qoliplar va pilyonkalarni tayyorlash kerak emas. Shu orqali raqamli usul yordamida bosma jarayoni arzon bo'ladi va bosmaoldi tayyorgarlik jarayonida tasvirning sifatini yo'qotish xavfi kamayadi.

Tasvirning yuqori imkonlilik qobiliyati. Raqamli bosma texnologiyasi 2400 dpi imkonlilik qobiliyatiga ega bo'lgan tasvirlarni olishga imkon beradi, bu esa mayda detallarni yuqori aniqlikda aks ettirishni ta'minlaydi, sifati esa ofset bosmanikidan qolishmaydi.

Fotosuratlar bosish. Yakuniy nusxaning yuqori imkonlilik qobiliyati buyurtmachining materialidagi fotosuratlarni bosish imkonini yaratadi. Raqamli bosma mashinasining funksional imkoniyatlari bosma jarayonida buyurtmachining istaklarini inobatga olib, tasvirning rangini tuzatishga imkon beradi.

Bosmadan keyin qayta ishlash. Raqamli bosmada tayyorlangan mahsulot ofset bosmadagi kabi quritishga muhtoj emas, ya'ni, darhol bosmadan so'ng qayta ishlash uchun tayyor. Bu afzallik ishlab chiqarish siklini qisqartiradi, shuningdek, bosma boshlanishidan keyin bir necha daqiqa o'tgan zahoti bosmadan keyin qayta ishlashni talab etuvchi mahsulotning nazorat namunasini olishga imkon beradi.

Nazorat nusxasi. Agar adadni bosishdan oldin bosma namunasini ko'rmoqchi bo'lsangiz – muammosiz! Raqamli bosma adad sifatiga ega bo'lgan «rang namunasi»ni bir zumda olish imkoniyatini taqdim etadi.

Darhol rangni tuzatish. Raqamli bosmaning yana bir ustunligi shundaki, xatto namuna varag'ini yaratgandan keyin ham bosma mahsulot maketiga tuzatishlar kiritish mumkin. Buning ustiga, raqamli bosma birlamchi maketga tuzatishlar kiritish osonligi tufayli, har bir nusxani betakror qilishga imkon beradi. Yakunida aytishni istardikki, ishlar hajmidan qat'i nazar, raqamli bosma qisqa muddatlarda kafolatlangan sifatni ta'minlaydi.

Purkashli bosish usuli

Purkovchi bosma «Computer-to-Paper» tizimlariga kiradi, chunki u bir bosqichdan – rangli tasvirni bosma kallaklar yordamida bosiladigan materialning o'ziga tushirishdan iborat. Unda past qovushqoqlilikka ega bo'lgan suyuq bo'yoqlardan foydalaniladi. Ular siyoh deb ataladi. Istalgan purkovchi qurilmaning asosiy komponenti bo'lib, bosma kallak hisoblanadi. Kallakdan tashqari, qurilma kallakni aniq siljitadigan va uni dam-badam tozalab turadigan mexanizmni, qog'ozni o'tkazuvchi tizimni va bosmani boshqarish tizimini o'z ichiga olgan. Purkovchi bosma rastr prinsipiga ko'ra bo'yoq tomchilaridan hosil bo'ladi. Purkovchi bosma quyidagi turlardagi uskunalarda qo'llanadi:

- turli klassdagi, arzon shaxsiy printerlardan tortib to professional maqsadlarda ishlatiladigan qimmatbaho printerlargacha;
- plotterlarda (qog'oz rulon tarzida uzatiladigan keng bichimli printerlarda);
- raqamli bosma mashinalarida.

Hozirgi vaqtda purkovchi bosma ham texnik jihatdan, ham tasvirning barqaror va yuqori sifatini ta'minlash borasida yuqori darajaga etdi. Purkovchi printerlarning, ayniqsa ofis printerlarining arzonligi jarayonning oddiyligi sabablidir. Bosma kallaklarning va bunday moslamaning dasturiy ta'minoti qimmatligi tufayli, professional qurilmalarning bahosi ham qimmat.

Purkovchi qurilmadan foydalanish bahosi elektrofotografiyadan ko'ra qimmatroq turadigan sarflanma materiallarning narxi bilan bog'liq.

Purkovchi texnologiyalarning ikki turi mavjud: «uzluksiz purkov» va «talabga ko'ra tomchi» («continuous inkjet» va «drop-on-demand»). Ikkinchi turni yana impulsli purkovchi bosma deb atashadi.

Impulsli purkovchi bosma tomchilarning hosil bo'lishi usuliga ko'ra pezopurkovchi va termopurkovchi bosmalarga bo'linadi.

Purkovchi bosma kallaklarni va printerlarni ishlab chiqaruvchi yirik firmalar orasida, Hewlett Packard, Canon, Lexmark va Olivetty termopurkovchi bosma bilan, Seiko Epson, Xerox va Xaag — pezopurkovchi bosma bilan

shug`ullanishadi. Uzluksiz purkovchi bosma uchun kallaklarni Scitex Digital firmasi chiqaradi.

Uzluksiz purkovchi bosma. Uzluksiz purkovchi bosma asosan sanoatda qo`llanadi. U sanoat va tovar mahsulotlariga turli belgilar va shtrixkodlarni tushirish uchun mo`ljallangan printerlarda qo`llanmoqda (Multidefleo`ion Continious InkJet). Tezkor matbaada uzluksiz purkovchi bosma usuli esa, qo`zg`almas kallaklari bo`lgan unumdor bosma moslamalarida (raqamli bosma mashinalarida) qo`llanadi.

Uzluksiz purkovchi bosma tizimlarida bosma kallakda joylashgan soplo yoki soplolar lineykasidan siyoh oqimlari chiqadi. Oqim soplodan chiqqan zahoti mayda tomchilarga parchalanib ketadi. Pezoelektrik rezonator va siyohning yuza tarangligi kuchlarining siyohga tebranma ta`siri hisobiga, oqimning parchalanishi ro`y beradi. Yuqori chastotali o`zgaruvchan tokning ta`sirida (bir necha o`n kilogers quvvatli) pezoelektrik o`lchamlarining tezkor davriy o`zgarishi (vibrasiyasi) yuz beradi. Siyoh kamerasida siyoh egallab turgan hajm ham o`sha chastotada o`zgaradi. Hajm kichraygan vaqtda siyoh soplodan itarib chiqariladi, hajm kengayganida esa siyoh kamerasiga siyohning yangi porsiyasi kelib quyiladi.

Pezoelektrik esa, siyoh kamerasining qayishqoq devorchasida qotirib qo`yilgan yupqa plastinkadan iborat bo`lishi mumkin. U yana po`lat sterjenda mustahkamlab qo`yilgan naycha shaklida ham bo`ladi. Kamera soplo bilan tugaydi, odatda bu soplo uzunligining diametriga nisbati $L/d=1,0$ tarzida bo`ladi. Uning diametri bir necha o`n mikronni tashkil qiladi (70 mkm. gacha).

Pezoelektr o`zgartirgichda qo`llanilgan hodisa — bu teskari pezoeffektidir. Uning mohiyati quyidagicha. Ba`zi kristalli materiallar elektr maydoni ta`sirida tez va kuchli qutblanadi va shuning uchun o`z o`lchamlarini o`zgartiradi. Maydon ta`siri to`xtatilgach, bu materiallar boshlang`ich holatiga qaytadi. Ularni pezoelektriklar deb atashadi. Pezoelektrikga o`zgaruvchan elektr kuchlanishi bilan ta`sir etilsa, unda mexanik tebranishlar vujudga keladi va etarlicha yuqori chastota yuz berganida, bu tebranishlar tovush to`lqinlarining paydo bo`lishiga olib keladi. Pezoelektriklar elektroakustik va elektromexanik o`zgartirgichlar sifatida

qo'llanadi. Pezoelektrlarning asosiy guruhini segnetoelektriklar tashkil qiladi, ularda bu effekt ko'proq darajada ifodalanadi. Bu — segnet tuzi, bariy, kalsiy va qo'rg'oshin titanati, shuningdek, qo'rg'oshin sirkonat-titanatidir. Titanatlar asosida pezokeramika tayyorlanadi, u qutblangan ko'rinishda ishlatiladi. Pezokeramika yuqori mustahkamlikka ega va uning pezoelektrik xossalari ham barqaror, shuning uchun aynan uni purkovchi kallaklardagi elektr signallari o'zgartirgichlarini yasashda ishlatishadi.

Siyoh tomchilari qog'ozning faqat tasvir joylashadigan erlariga uchib borishi uchun, selektiv tarzda zaryadlanadi. Og'diruvchi elektrod yordamida zaryadlangan tomchilar (texnologik jarayon sxemasiga qarab) yo qog'ozga, yoki tomchitutgichga yo'naltiriladi. Tomchitutgich ishlatilmagan siyohni takroriy foydalanish uchun siyoh resirkulyasiyasi tizimiga yo'naltiradi. Siyoh elektr o'tkazuvchan bo'lishi lozim.

Katta o'lchamli purkashli bosma

Katta o'lchamli purkashli bosma sifati yuqori bo'lib, uni fotografiya bilan solishtirish mumkin. Katta o'lchamli tasvirlarni tayyorlash texnologiyasi metodikasi yangi xisoblanadi. U yaratilish vaqtidan boshlab shidatli rivojlanib bormoqda.



Hozirgi vaqtda reklamaning bu sohosi ilmiy sig'imi eng yuqori yo'nalimlardan xisoblanadi. Chunki oddiy printer asosida murakkab bosma texnikasi ishlab chiqildi.

Katta o'lchamli purkashli bosma texik rivojlanishning yuqori bosqichiga ko'tarildi. Scitex, Nur va Vintek kabi Amerika va Isroil firmalari uskunalari o'rniga ko'p davlatlar bozoriga ularga raqobatbardosh uskunalar kirib keldi.

Ko'p rangli tasvir bosish eni 1,2 m dan 8 m gacha bo'lgan printerlarda 150 dpi dan 18000 dpi gacha bo'lgan imkonli qobiliyatda maxsus bo'yoqlardan foydalanib hosil qilinadi. Yuqori sifat va tezlikda bosishga optimallashtirilgan printerlar ranglarning aniq bo'lishini (18 mln nusxagacha) va adaddagi nusxalarning tusining bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Natijada zamonaviy katta o'lchamli bosma standartlariga mos keluvchi aniq rang berishiga erishiladi. Pigmentlarni tashqi muhit ta'siridan qo'shimcha himoyalash maqsadida tasvir maxsus qatlam (laminat) bilan qoplanadi.



Zamonaviy printerlar odatda materialni (tayyor nusxalarni o'rash moslamasi- ulardan uzun nusxalarni bosishda va/yoki bu nusxalarni laminatsiya qilish talab o'nilsa foydalanish qulay), siyoh sarfini (Encad kompaniyasi plotterlarining so'nggi modellarida kartridjlarga maxsus chiplar o'rnatilib, ularga foydalanilayotgan siyohlar haqidagi axborot va asosiysi, sarflangan siyoh haqidagi axborot yoziladi, bu ish narxini aniqlashga va kartridjning ish resursini aniqlashga imkon beradi) aniqlash tizimlari bilan, bosish bochalarini sozlashning avtomatik tizimlari bilan jihozlanadi. Bosish vaqtida boshchalarni avtomatik tozalash, materialni oldindan qizdirish, bosilagn tasvirlarni yuqori haroratli dinamik quritish tizimlari mavjud. Agar plotterda quritish tizimi bo'lmasa, bosilagan nusxalarni qabul bobinasiga oldida turishi va nusxalarni qirqib olib (bunin uchun barcha plotterlarda avtomatik pichoq mavjud) ularni quritish uchun maxsus joyga

joylashtirishi lozim. Quritishni foto qog'oz yoki plenkaga bog'liq xolda amalga oshiriladi.

Katta o'lchamli printerlar, odatda, oson o'qiladigan SK displeylar va boshqaruvning qulay navigatsion tizimlari bilan jihozlanadi.



Zamonaviy plotterning asosiy elementlardan biri siyoh uzatish tizimi xisoblanadi. U katta hajmli idishdan siyoh uzatish xisobiga bosish tannarxini pasaytirish va unimdorlikni oshirish imkonini beradi. Natijada siyoh h uyish uchun plotterni to'xtatish uchun plotterni to'xtatish uchun plotterni to'xtatish vaqti oddiy kartridjlardan foydalanishga nisbatan keskin kamayadi. Encad plotterlarida ish vaqtida siyoh to'ldirish mumkin. 1995 yili Encad firmasi siyohni 500 ml sig'imili balnkalardan uzatish tizimiga ega NovaJet PRO 36 plotterini namoyish qilganida bu hodisa reklamachilar orasida katta qiziqish keltirib chiqardi. Plotter to'xtovsiz sutkalab ishlash mumkin edi. 2-3 yildan so'ng boshqa firmalar ham o'zlarida shunday tizimlarni qo'llash boshlandi.

Purkashli bosma texnologiyalari

Purkashli bosma tasvir olish jarayoni bo'lib, unda tasvir purkovchi boshcha va tasvir hosil qilinayotgan yuza orasidagi masofani bosib o'tishga qodir tezlikda otilib chiqadigan siyoh tomchilari bilan hosil qilinadi.

Lazerli yoki LED printerlarga nisbatan purkashli qurilmalar bir qator kamchiliklarga ega. Masalan, hozirga qadar bosma sifatining qog'oz turiga bog'liq bo'lmasligini ta'minlaydigan siyohlarni yaratishning iloji bo'lmadi. G'ovakli qog'oz siyohning ko'p shimilishiga olib keladi, natijada chiziq va konturlarning

aniqligi yo'qoladi, lekin silliq qog'ozda sifatli tasvir olinadi. Bundan tashqari, purkovchi boshcha va shunga muvofiq ulardan otilib chiqayotgan siyoh tomchilari o'lchami va tezligining bir xil emasligi tasvirda, ayniqsa uning och joylarida ko'zga seziladigan yo'lkalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Sifatni pasaytiradigan yana bir omil tomchi-"yo'ldosh" larning paydo bo'lishi hisoblanadi, ular talab qilinadigan traektoriyadan tasodifan siljib ketadi va qog'ozdagi kerakli joyga yetib bormaydi.


Tasvir olishning elektrofotografik usuli bilan solishtirilganda rangli bosma qurilmalari orasida purkashli bosmaning bir qator afzalliklarini ko'rsatish mumkin: purkashli printerda olingan rangli nusxaning narxi elektrofotografik printerda olingan nusxaga nisbatan ancha past, sifat esa deyarli bir xil.

Rangli purkashli printerl raqamli tsvetoproba tayyorlashda oldindan kalibrlanadi. Unda rangli nazorat shkalasi chiqarilib, gradatsiyasi spektrofotometr yordamida o'lchanadi, olingan ma'lumotlar esa printer ICC profilining maxsus linearizatsiyai fayliga kiritiladi. Ba'zi printerlar tasvirni 6 bo'yoqda bosadi. Bular odatdagi CMYK ranglari va qirmizi hamda siyohrang siyohlarning "ochartirilgan" variantlari.

Yuqori sifatli tasvir olish uchun fizik imkonli qobiliyati 1440x720, 1200x1200, 2880x720, 2400x1200 dpi bo'lgan purkashli printerlar ishlab chiqariladi. So'nggi ikkita qiymat printer bosuvchi boshchasining ikki marta o'tishi hisobiga ta'minlanadi.

Purkashli bosma usulida olingan nusxaning ikkita asosiy kamchiligi mavjud: «suvdan qo'rqish» va UB-nurlanish ta'siri ostida rangining ocharib ketishi. Shunga bog'liq holda so'nggi yillarda qattiq bo'yovchi kukunning mayda dispersli suvdagi aralashmasi bo'lgan pigmentli siyohlardan foydalanila boshlandi. Pigmentli siyohlar to'yingan va namlikka chidamli rangga ega. Oddiy qog'ozga chiqariladigan tasvirlarning mastahkamligini oshirish maqsadida ba'zi purkashli printerlarda qora siyoh uchun kartridjda qo'shimcha kanalga ega bosuvchi boshchalardan foydalaniladi. Bu kanalda optimizator mavjud bo'lib, uning vazifasi


siyoh tomchilari uchun bo'yoqning yoyilishini bartaraf qiluvchi taglik hosil qilishdan iborat (rasm 1). Bunday qatlam yordamida tasvir suvga chidamli bo'ladi.




Rasm 1. Purkashli printerda siyoh optimizatoridan foydalanish shakli

Purkashli bosma tasvir tushirish usuli bo'yicha uzluksiz va impulsli turlarga bo'linadi (rasm 2). impulsli purkashli bosma o'z navbatida pufakli, p'ezoelektrik va qattiq siyohli usullargsha bo'lanadi.

Uzluksiz purkashli bosma. Uzluksiz bosma usulida ishlaydigan purkashli printerlarda (rasm 3) bosuvchi boshcha uzluksiz ravishda siyoh tomchilarini qog'oz tomon purkaydi. Bosuvchi boshchaga keluvchi siyoh oqimi p'ezoelektrik tomchi generatori yordamida yuzaga keladigan purkagichning vibratsiyasi ta'siri ostida tomchilarga parchalanadi. O'zgaruvchan elektr kuchlanishi ostida p'ezoelektrik kristali o'z hajmini o'zgartiradi va tomchini boshchadan otib yuboradi. Siyoh nasos yordamida rezervuardan doimiy ravishda bosuvchi boshchaga beriladi. Ma'lum qovushqoqlikdagi siyoh olish uchun bu rezervuar erituvchi rezervuari bilan ulangan.




Rasm 2. Purkashli bosma usullarining sinflanishi



Rasm 3. Uzluksiz purkashli bosma printerining shakli

Purkagichdan chiqish zonasini egallagan elektrod yordamida uchib chiquvchi tomchilar elektr zaryadiga ega bo'ladi. Keyin ular siljitivchi tizim orqali uchib o'tadi. Bu tizim yuqori kuchlanishli elektr maydon hosil qiladi. Tomchilar zaryadga ega bo'lgani uchun ular elektr maydon ta'siri ostida o'z traektoriyasini o'zgartiradi. Tasvir generatori tomchilarning uchish yo'nalishini boshqaradi. Ular qog'ozdagi kerakli joyga tushadi yoki tutib oluvchi moslamaga tushib, u yerdan siyoh qayta foydalanish uchun rezervuargacha qaytariladi.

Bosuvchi boshcha (rasm 4) axborot tashuvchi (qog'oz) yuzasi bo'ylab harakatlanadi va doimiy ravishda tasvirni shakllantiradi.



Rasm 4. Purkashli printerlarning tuzilish variantlari: 1 - axborot tashuvchi (qog'oz); 2 - bosuvchi boshcha; 3 - egiluchan kabel; 4 - yo'naltiruvchi


Uzluksiz bosma usulida ishlaydigan purkashli printerlarning asosiy afzalligi yuqori sifatli tasvir olish imkoni hisoblanadi. Undagi nuqtalar ko'z bilan sezilmaydi. Kamchiligi sifatida tasvir olish tezligining pastligini ko'rsatish mumkin. Har bir purkagichla 1 soniyada 50 000 dan 150 000 gacha tomchi otilib

chiqishiga qaramasdan, bosish tezligi yuqori emas. Qimmat siyohlar ishlatilishi, uskunaning ham qimmatligi kamchilik hisoblanadi.


Impulsi bosma usulida ishlaydigan purkashli printerlar ancha keng tarqalgan. Uzluksiz harakat tizimidan farqli ravishda impulsi purkovchi boshchalar asinxron qurilmalar hisoblanadi. Ularda bosuvchi boshcha “talab bo’yicha” signal olinganidan so’nggina siyohni purkaydi.

Impulsi turdagi qurilmalarda tomchi generatorida purkagichning yonida kichik kamera o’rnatilgan bo’lib, unga zaruriy momentlarda kamera devorlaridan biriga nisbatan mikroporshen sifatida ishlaydigan p’ezoelektrik kristali yordamida yoki issiqlik impulsi yordamida ortiqcha bosim hosil qilinadi. Ortiqcha bosim kameradan siyoh tomchisini otib yuboradi, u inertsiya ta’sirida qog’ozgacha bo’lgan masofani bosib o’tadi. Tomchi ketidan tomchi printsiipi bo’yicha tasvir shakllanadi (rasm 5).

P’ezoelektrik purkashli boshchalarda siyohli kameradagi ortiqcha bosim p’ezoelektrikdan tayyorlangan disk yordamida hosil qilinadi, u o’z shaklini o’zgartiradi – unga elektr kuchlanishi ta’sir qilganida bukiladi. Siyohli kamera devorlaridan biri bo’lgan disk bukilganda uning hajmini kamaytiradi. Ortiqcha bosim ta’siri ostida suyuq siyoh tomchi ko’rinishida purkagichdan otilib chiqadi. Texnologik murakkabligi nisbatan yuqori bo’lgani tufayli p’ezoelektrik bosuvchi boshchalar pufakli boshchalarga nisbatan qimmat.




Rasm 5. Impulsi turdagi printerlarda tasvirning shakllanishi



Rasm 6. P'ezoelektrik boshchanning shakli

Pufakli purkashli texnologiya bo'yicha ishlaydigan bosuvchi tizimlarda matn va grafika juda ingichka purkagichlardan o'tilib chiqadigan siyoh tomchilarining qog'ozga tushishidan hosil bo'ladi. Bu quyidagi tarzda amalga oshadi (rasm 7). Purkagich devoriga qizdiruvchi element kiritilgan. Elektr impulsi berilganda uning harorati keskin oshib ketadi. Keyin qizdiruvchi element bilan kontaktda bo'lgan butun siyoh o'sh zahoti bug'lanadi, bug'ning kengayishi to'lqinli zarbani keltirib chiqaradi. Ortiqcha bosim ta'siri ostida tomchi purkagichdan otib yuboriladi. Shundan so'ng bug' kondensatsiyalanadi, pufak "yoriladi" va purkagichda past bosimli zona hosil bo'ladi. Uning ta'siri ostida yangi siyoh ulushi purkagichga o'tadi.



Rasm 7. Pufakli bosuvchi boshchanning ish printsi

Purkagichlarning sodda va ishonchli tuzilishi bunday bosuchi qurilmalarning muhim xususiyati hisoblanadi. Bu qurilmani ishlab chiqarish narxining past bo'lishiga xizmat qiladi.

Loyiha uchun asosiy uskunalarni tanlash

Kompyuter Pentium 4



XXI asr axborot texnologiyasi asri bo'lib, bugungi kunda hayotni kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Har bir tashkilot, korhona, o'quv muassasasi, davlat idoralari va har bir honadon kompyuter deb nomlanmish qurilmadan foydalanadi. Kompyuter insonlarga katta imkoniyatlar va qulayliklar yaratadi. Buni yaqqol misoliga kompyuterni har bir sohada chuqur ildiz otgan holatni ko'ramiz va uning yordamida boshqa texnik qurilmalarga dasturlar tuziladi, kechyotgan jarayonlar idora qilinadi, kosmik kemalarni uzoq masofalar yordamida boshqarish ham aynan kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Matbaatchilik sohasi birinchi navbatda rivojlanuvchi kosmanavtika va medidsina sohalaridan keyingi o'rinda turadi. Shu boyis ham barcha texnologiyalarda (CTF, CTP, CT-PRESS) vaqtni tejash va imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida kompyuter ko'plab operatsiyalarda (terish, sahifalash, hatolarni to'g'irlash, olingan tasvirni rastrlash va ishlov berish, tarmoq orqali fotonabor avtomatiga buyruq berish va hakazolarda) ishlatiladi.

Monitor	LG1942W
Case	AXE+300WFSP
Moterinskiy plata	GIGA P43
Cpu	7500+COOL
Operativ hotira	2GB 800X2
Qattiq disk	1000GB+ COOL
Video karta	9800GT 1GB
DVD room	DVD-RW LF
Klviatura	LUXMATE220
Sichqoncha	GENIUS OPTICAL LASER
Kolonka	SPS220
Modem	D-LINK 3IN1 WI-FI

Epson Perfection V200 Photo planshetli skaneri



Asosiy tavsifnomalari:


Tipi	Planshetli skaner
Aslnusxa turi	Yorug'lik qaytruvchi
Skanerlash uslubi	Bir o'tishli skanerlash
Skanerlovchi soha(maks.)	215x297 mm
Imkonli qobiliyat	Optik: 4800x9600 dpi Interpolyatsion: 12800x12800
Skanerlash tezligi	35 mm li rangli pozitiv fotoplyonkani 4800 dpi imkonli qobiliyatda skanerlashda 64 soniya/sahifa (oliy sifat) A4 o'lchamli rangli aslnusxani skanerlashda 7 soniya/sahifa A4 o'lchamli rangli aslnusxani 700 dpi imkonli qobiliyatda skanerlashda (Line-art sifat) 16 soni/sahifa A4 o'lchamli rangli aslnusxani 600 dpi imkonli qobiliyatda skanerlashda (foto sifat) 30 soniya/sahifa
Rang chuqurligi	Rangli tasvir: 48 bit
Optik zichlik (maks.)	3.2D
Lampa turi	Sovuq qatodli flyuorestsent lampa
Oldindan ko'rish qobiliyati	mavjud
Skanerlanadigan ob'ekt	Qog'oz: A4 210x297 mm 35 mm fotoplyonka 35 mm slayd-plyonka
Tizim talablari (min.)	Apple Mac OS X10.2.8 MS Windows 989E/ME/2000/Xp
Ulanish turi	USB, USB 2.0
Interfeys	USB 2.0 Tip B
Elektr iste'moli	quvvat adapteri
O'lchamlari, og'irligi	28,0x5,7x43,0 sm 2,6 kg

CANON IMAGEPRESS C6010VP raqamli bosma uskunasi



1. Tuzilish xususiyatlari

To'rtta alohida fotobaraban va tasvir ko'chirishga mo'ljallangan oraliq tasmaga ega bosma mexanizmi. Bosish jarayonida tonerni yuklash imkoniyati.





2. Yangiliklar: V-toner, T-developer, E-fotobaraban

Tasvirni shakllantirishning yuqori sifati va tezkorligi ta'minlanadi.



Yangi V-toner – bu an'anaviy va polimer tonerlarning sintezi bo'lib, u bosiluvchi materiallarning keng spektri uchun optimallashtirilgan va moy rdamida

mustahkamlash talab qilmaydi. Ofset bosmadagi singari keng bo'lgan rang qamrovini ta'minlashga imkon beradi.

	
<p>V-toner. Zarrachalar o'lchami - 5.5 mikron</p>	<p>Sariq kontur bilan ImagePRESS uskunasi rang qamrovi belgilangan, qora bo'yoqda esa – Euroscale Coated v2 standarti bo'yicha ofset bosmaning rang qamrovi belgilangan</p>

3. Bosmaning yuqori imkonli qobiliyati 1200x1200dpi, 256 gradatsiya

4. Rang zichligini avtomatik nazorat qilish va to'g'rilashga mo'ljallangan


ARCDAT texnologiyasi

Takomillashgan ikkita yangi optik sensor:

Birinchi sensor yorug' (och) ranglarni yuqori aniqlikda nazorat qiladi va toner zichligi datchigi bilan birgalikda ishlaydi.


Ikkinchi sensor to'q ranglarni nazorat qiladi.

ARCDAT texnologiyasidan foydalanib real vaqt sharoitida tonerning zichligini nazorat qilish (har bir nusxa nazorat qilinadi) adadda tasvirlarning yuqori darajada barqaror bo'lishini ta'minlaydi (an'anaviy tizimlarga nisbatan 170% barqarorroq).




5. Mustahkamlashdan so'ng avtomatik kalibrlash

Tasvir pechkada mustahkamlanganidan keyin aniq avtomatik kalibrlanishi va real vaqt sharoitida bosma jarayoni parametrlarini to'g'rilash uchun qo'shimcha sensorlar mavjud.



7. Tasvirni mustahkamlashning yangi tizimi

Yangi, ikki modulli fiksatsiya tizimi (pechka) bosish tezligini pasaytirmagan holda zichligi $64-325 \text{ g/m}^2$ bo'lgan materiallarda tonerning ishonchli mustahkamlanishini ta'minlaydi.



8. Katta sig'imli savatchalar.

Materialni uzatish tizimining maksimal sig'imi – 1000 varaq, varaq o'lchami 330x487.5 mm.


Qabul savatchalarining maksimal sig'imi 17000 varaq, varaq o'lchami 330x487.5 mm.



9. Bosishning maksimal o'lchami 323x482.7 mm

10. Mahsulotga tizim qatorida yakuniy ishlov berishning keng imkoniyati.

